Bulutli texnologiyalardan foydalanish kiberxavfning oldini oladi(mi?)

Bulutli texnologiyalar bugungi kunda iqtisodiyot tarmoqlari va sohalariga sekin-astalik bilan kirib bormoqda, uning foydalanuvchilarga qulayligi va iqtisodiy jihatdan samaradorligi undan aholining foydalanishga bo‘lgan ehtiyoji yanada oshishiga sabab bo‘lmoqda. Bulutli texnologiyalarga qiziqish O‘zbekistonda rasman 2018-yildan boshlandi[1].



[1] Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Электрон тижоратни жадал ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида” 2018 йил 14 майдаги 3724-қарори // lex.uz–Қонунчилик ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси.

Shundan keyin dasturiy mahsulotlar va axborot mahsulotlaridan foydalanish huquqini amalga oshirish hamda rasmiylashtirishning bojxona rasmiylashtiruvi (deklaratsiyalash) va buxgalteriya hisobini yuritishda bulutli texnologiyalardan foydalanish tartibi ishlab chiqildi[2], ta'lim jarayonlarida bulutli texnologiyalarni qo'llash mexanizmlari va texnikasi yaratildi. 2021-yil 1-yanvardan fuqarolarning "bulutli" platformani boshqarish yo'nalishlarida xalqaro IT-sertifikatlarni olish xarajatlarini 50 foizgacha qoplash tizimi joriy etildi[3] va bugungi kunga qadar 23 ta normativ-huquqiy hujjat asosida bulutli texnologiyalar iqtisodiyot tarmoqlarida keng qo'llanilishi bo'yicha zarur harakatlar amalga oshirib kelinmoqda. Qonunchilikda 2023-yilga qadar internet tarmog'ida bulutli servislar ekspertizasi joriy etilishi belgilandi va ichki ishlar organlarining ekspert-kriminalistika faoliyatini bulutli texnologiyalar bilan ta'minlash taklif qilindi[4].

Biroq ushbu texnologiyalarning keyingi rivojida kiberxurujlar katta to'siq bo'lib turibdi. Xususan, shu kunga qadar bulutli texnologiyalar xizmatlarini ko'rsatishga oid shartnomaviy munosabatlarning lozim darajada qonunchilikda tartibga solib qo'yilmagani, shartnomaviy munosabatlarda axborot xavfsizligi shartnomaning qaysi tarafi tomonidan qanday hollarda ta'minlanishiga oid munosabatlar hanuz amaliyotda muammoli holat sifatida ko'rib kelinmoqda. Bulutli texnologiya xizmatlarini ko'rsatish shartnomasida taraf sifatida ishtirok etgan operator yoki provayder va foydalanuvchi (abonent) o'rtasida tuzilgan shartnoma Fuqarolik kodeksining 703-708-moddalariga muvofiq bo'lishi kerak. Aks holda ushbu shartnoma Fuqarolik kodeksining 116-moddasiga muvofiq, qonunchilikka zid shartnoma bo'lganligi sababli Fuqarolik kodeksining 114-moddasi talablariga asosan haqiqiy emas deb hisoblanishi lozim. Fuqarolik kodeksining 703-moddasiga asosan abonent faqatgina ko'rsatilgan xizmatlar uchun haq to'lash majburiyatini olgan bo'lsa, shartnomaning qolgan majburiyatlari provayderning zimmasida qoladi. Aynan mana shu qoida ko'p muammolarga sabab bo'lmoqda. Jumladan, kiberhujum provayderning abonenti foydalanayotgan bulutli texnologiyaga hujum qilinishi oqibatida abonentga tegishli bo'lgan shaxsga doir yoki boshqa ma'lumotlar o'g'irlanmoqda yoki elektron mablag'lar o'zlashtirib olinmoqda. Natijada shartnoma sifatida taraf bo'lgani uchun abonent "Sudlar to'g'risida"gi qonun va Fuqarolik protsessual kodeksiga asosan, zarar undirish bo'yicha fuqarolik sudlariga da'vo kiritsa, zarar kimdan va qanday miqdorda undirilishi bo'yicha nizoli holat yuzaga keladi.

Mazkur holatda sud qanday qaror chiqarishi kerak, qanday qaror chiqarilsa, Fuqarolik protsessual kodeksining 14-moddasida nazarda tutilgan qonuniylik tamoyili amalda o'z isbotini topishi mumkin?

Fikrimizcha, quyidagilarni inobatga olish va qonunchilik hujjatlarini qayta ko'rib chiqish vaqti keldi. Abonent provayder taqdim etgan serverdan yoki provayder ko'rsatayotgan xizmatlardan foydalangani uchun qonunchilik hujjatlariga asosan, xususan, Fuqarolik kodeksining 703- va 705-moddalarida belgilangan tartibda haq to'lashdan tashqari Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirining 2020-yil 30-iyundagi 208-mh-buyrug'i bilan tasdiqlangan Telekommunikatsiya xizmatlarini ko'rsatish qoidalarida belgilangan majburiyatlarni bajarishga majbur.

[2] Вазирлар Маҳкамасининг 2018 йил 16 августдаги 670-қарори билан тасдиқланган "Дастурий маҳсулотлар ва ахборот маҳсулотларидан фойдаланиш ҳуқуқини амалга ошириш ҳамда расмийлаштиришнинг божхона расмийлаштируви (декларациялаш) ва бухгалтерия ҳисобини юритиш тартиби тўғрисида"ги низом // lex.uz–Қонунчилик ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси.

[3] Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Рақамли Ўзбекистон–2030" стратегиясини тасдиқлаш ва уни самарали амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида" 2020 йил 5 октябрдаги 6079-фармони // lex.uz–Қонунчилик ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси.

[4] Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Ички ишлар органларининг эксперт-криминалистика фаолиятини замонавий илм-фан ютуқларини кенг жорий этган ҳолда янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида" 2022 йил 8 февралдаги 122-қарори // lex.uz–Қонунчилик ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси.

Xususan:

- abonent telekommunikatsiya tarmogʻidan davlat siri boʻlgan ma’lumotlarni yoki qonunchilik bilan qoʻriqlanadigan boshqa sirni uzatish uchun foydalanishga yoʻl qoʻymaslik;
- telekommunikatsiya tarmogʻi yordamida fuqarolarning sha’ni va qadr-qimmatiga yoki ishchanlik obroʻsiga putur yetkazuvchi, ularning shaxsiy hayotiga aralashishga yoʻl qoʻyuvchi axborotni tarqatmaslik;
- qonunchilik hujjatlariga asosan telekommunikatsiya tarmogʻi orqali tarqatilishi taqiqlangan axborotlardan tijorat yoki notijorat maqsadlarda tarqatish uchun foydalanmaslik;
- telekommunikatsiya tarmoqlari ish sifatining pasayishiga yoki telekommunikatsiya tarmoqlarining shikastlanishiga olib keladigan harakatlarni bajarmaslik;
- oʻz xonalarida joylashgan abonent tarmogʻi va abonent qurilmasini texnik ekspluatatsiya qilish qoidalariga rioya qilish;
- ma’lumotlar bazalaridan ruxsatsiz foydalanmaslik va operatorning (provayderning) dasturiy vositalarini oʻzgartirmaslik;
- telekommunikatsiya xizmatlarini koʻrsatish uchun GSM, IP yoki SMS-shluzlar yoki shunga oʻxshash apparat-dasturiy vositalardan foydalanish niyati boʻlganda, bu haqda operatorni (provayderni) ogohlantirish majburiyatini bajaradi.

Provayder yoki operator esa GSM, IP yoki SMS-shluzlardan, jumladan:

- tarmoqda maxsus apparat-dasturiy vositalarini oʻrnatish yoʻli bilan noqonuniy foydalanishga qarshi kurashish choralarini koʻrish;
- oʻzining rasmiy veb-saytida rasmiy axborotni, shu jumladan, taqdim etiladigan xizmatlar roʻyxatining oʻzgarishi toʻgʻrisidagi axborot, tariflar, prays-varaqlar, xizmatlarni taqdim etish tartibi va shartlari va hokazolarni oʻz vaqtida e’lon qilish;
- GSM, IP yoki SMS-shluzlardan yashirin foydalanishga qarshi choralarni koʻrish, shu jumladan, tarmoqda maxsus apparat-dasturiy vositalarni oʻrnatish yoʻli bilan, abonentning harakatlarini tahlil qilish majburiyatini bajarishga majbur[5].

Demak, abonent Fuqarolik kodeksida nazarda tutilgan shartnoma haqini toʻlashdan tashqari, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirining 2020-yil 30-iyundagi 208-mh buyrugʻi bilan tasdiqlangan qoidalarga asosan axborot xavfsizligi talablariga oʻzi ham rioya qilishi lozim.

Shundan koʻrinib turibdiki, agarda abonentdagi mavjud login va parol abonentning ehtiyotsizligi, axborot xavfsizligi talablariga rioya etmasligi natijasida kiberhujumga uchrab kiberjinoyatchining qoʻliga tushadigan boʻlsa va shu orqali abonentning shaxsiga tegishli ma’lumotlar yoki boshqa axborotlarga zarar yetadigan boʻlsa yoki abonentnig oʻziga mulkiy yoki nomulkiy zarar yetadigan boʻlsa, mazkur holatda operator yoki provayderning javob berishi notoʻgʻri hisoblanadi va taraflar oʻrtasida tuzilgan shartnoma talablari bundan mustasno. Agarda shartnomaga asosan abonent operator yoki provayderga tegishli serverdan foydalangani uchun haq toʻlashdan tashqa-

[5] Ўзбекистон Республикаси ахборот технологиялари ва коммуникацияларини ривожлантириш вазирининг 2020 йил 30 июндаги 208-мҳ буйруғи (30.06.2020 й., рўй.: 3275) билан тасдиқланган Телекоммуникация хизматларини кўрсатиш қоидалари // lex.uz-Қонунчилик ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси.

ri serverdagi ma'lumotlarning xavfsizligini ta'minlash bo'yicha operator yoki provayder bilan shartnomaviy munosabatga kirishadigan bo'lsa, u holda Fuqarolik kodeksi 236-238-moddalari talablariga asosan yuqorida keltirilgan holatda operator yoki provayder abonentga yetkazilgan zararni qoplashi shart.

Fuqarolik kodeksi 703-moddasining ikkinchi qismiga asosan aloqa xizmati va axborot xizmatlari ko'rsatish shartnomalariga oid munosabatlar kodeksning 703-708-moddalarida belgilangan tartibda hal etiladi. Fuqarolik kodeksi 703-moddasining birinchi qismiga asosan haq evaziga xizmat ko'rsatish shartnomasi bo'yicha ijrochi buyurtmachining topshirig'i bilan ashyoviy shaklda bo'lmagan xizmatni bajarish (muayyan harakatlarni qilish yoki muayyan faoliyatni amalga oshirish), buyurtmachi esa bu xizmat uchun haq to'lash majburiyatini oladi.

Aslida esa Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirining 2020-yil 30-iyundagi 208-mh buyrug'i bilan tasdiqlangan qoidalarga ko'ra, abonentning operator va provayder oldida tuzilgan shartnoma bo'yicha shartnoma haqini to'lashdan tashqari yuqorida sanalgan majburiyatlarni bajarish vazifasi ham mavjud. Shuningdek, "Axborotlashtirish to'g'risida"gi qonunga asosan maxsus vakolatli organ yuridik va jismoniy shaxslarning o'z axborot resurslari hamda axborot tizimlari muhofaza etilishini ta'minlash borasidagi faoliyatini muvofiqlashtiradi, axborot resurslaridan foydalanuvchilarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish choralarini amalga oshiradi, Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 1-maydagi 318-qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi to'g'risida"gi nizomga asosan Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi axborotlashtirish, elektron hukumat, elektron tijorat, elektron raqamli imzodan foydalanish, telekommunikatsiyalar va pochta aloqasi sohasida maxsus vakolatli organ hisoblanadi.

Shunga ko'ra, maxsus vakolatli organ belgilagan qoidalardan kelib chiqib, Fuqarolik kodeksining 703-moddasining ikkinchi qismini quyidagi tahrirda bayon qilish taklif qilinadi:

"Ushbu bobning qoidalari tibbiyot, veterinariya, auditorlik, maslahat, ta'lim berish, sayyohlik xizmati va boshqa xizmatlar ko'rsatish shartnomalariga tatbiq etiladi. Ushbu kodeksning 37, 39, 40, 43, 44, 45, 46, 48, 49 va 51-boblarida nazarda tutilgan shartnomalar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar bundan mustasno".

Shu bilan birga, hozirgi kunda iqtisodiyot tarmoqlarining barcha sohasiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalari kirib borganligi, Prezidentning 2018-yil 8-avgustdagi 5505-farmoni bilan tasdiqlangan Norma ijodkorligi faoliyatini takomillashtirish konsepsiyasi talablaridan kelib chiqib, mavjud ijtimoiy munosabatlarni, shu jumladan, aloqa va axborot xizmatiga oid fuqarolik munosabatlarini to'g'ridan-to'g'ri qonun bilan tartibga solish maqsadida Fuqarolik kodeksini quyidagi tahrirdagi 51^1-bob bilan to'ldirish va ushbu bobda aloqa va axborot xizmatlarini ko'rsatishga oid qoidalarni aniq belgilash maqsadga muvofiq:

"51^1-bob. Aloqa va axborot xizmatlarini ko'rsatish shartnomasi".

"Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi qonunga asosan normativ-huquqiy hujjat o'zidan yuqori bo'lgan normativ-huquqiy hujjatga muvofiq bo'lishi kerak degan qoidadan foydalanish orqali Fuqarolik kodeksining 703- va 705-moddalari talablaridan kelib chiqib, abonentlar bugungi kunda operator va provayderlarga ushbu qoidalar qonun darajasida belgilanganligi va Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirining 2020-yil 30-iyundagi 208-mh buyrug'i bilan tasdiqlangan qoidalar esa idoraviy normativ-huquqiy hujjat bo'lganligi uchun yuridik kuchi bo'yicha "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi qonunga binoan quyi o'rinda turishidan foydalanishi orqali mantiqan noto'g'ri, ammo qonunan to'g'ri yo'llar orqali zarar keltirish ehtimoli mavjud.

Achinarlisi, bundan kiberjinoyatni amalga oshirgan shaxslarning foydalanishi natijasida bugungi kunda sudlarimizda qonunchilik hujjatlariga asosan aniq yechimlar o'rtasida vujudga kelishi mumkin bo'lgan kollizion holatlar bo'lish ehtimoli yo'q emas.

Shu o'rinda bu kabi tafovutlar vujudga kelmasligi uchun abonent va operator-provay-



derlarga bir qator tavsiyalarni bergan boʻlardik, jumladan, operator va provayderlar bulutli texnologiyalar xizmatini koʻrsatish toʻgʻrisidagi shartnomasini rasmiylashtirishda abonentning ehtiyotsizligi natijasida abonentga berilgan bulutli texnologiya va undagi axborotlarga keltirilgan zarar bilan bogʻliq munosabatlarni aniq kelishib, uni shartnomada qayd etib oʻtishlari lozim. Shu bilan birga operator va provayderning axborot resurslari va tizimlariga boʻlgan kiberhujum natijasida abonentga keltirilgan yoki keltirilishi mumkin boʻlgan masalalar ham tuzilajak shartnomada aniq belgilanishi zarur. Abonentlar oʻzlari foydalanayotgan bulutli texnologiyalarga nisbatan axborot xavfsizligini ta'minlashda bulutli texnologiyalarga kirish login va parolini imkoni qadar mukammal belgilar yordamida ifodalashi, imkoni boʻlsa, yagona qurilma yordamida bulutli texnologiyaga kirish imkoniyati yaratilishi va bulutli texnologiyalarga oʻzga qurilmalar orqali ham kirishning imkoniyatini cheklashi, ya'ni bitta IP-manzil orqali tizimga kirish imkoniyatini operator yoki provayder bilan kelishib olishi maqsadga muvofiq. Xorijiy davlatda yoki operator va provayderning xizmat koʻrsatadigan hududidan tashqarida abonent bulutli texnologiyadan foydalangan vaqtida dastlab xabar berish va keyin tizimga kirish mexanizmi yoʻlga qoʻyilishi zarur. Chunki oʻzga hududdagi axborot tizimlarining xavfsizligiga Oʻzbekiston Respublikasining hududidagi operator va provayderlarning javob berish imkoniyati texnik jihatdan doimo yetarli boʻlavermaydi, barmoq izlari yoki Face-nazorat orqali tizimga kirish imkoniyatini yaratish maqsadga muvofiq.

Bulutli texnologiyalarning katta kamchiligi ularning oʻzga shaxs mulki ekanligi va uning xavfsizligini ta'minlash abonent zimmasida emas, balki operator va provayder zimmasida boʻlganligi va ularning axborot xavfsizligini ta'minlash borasida qanday kuchga ega ekanligini abonent bilmasligidadir. Ushbu bilish imkoniyatining cheklanganligi ba'zi holatlarda abonentlar zarar koʻrishiga olib kelishi mumkin. Shu sababdan ham koʻrsatilayotgan xizmatlarning sifati, boʻlishi mumkin boʻlgan zararning oqibatlarini oldindan prognoz qilgan holda operator va provayder tanlash mahorati ham abonent uchun juda muhim.

Bulutli texnologiyalarning abonentga qulayligi shundaki, abonent oʻziga tegishli boʻlgan axborotlarni saqlash uchun alohida axborot resursi va tizimiga ega boʻlishi shart emas, faqatgina bulutli texnologiyalar xizmatini koʻrsatuvchi operator yoki provayder bilan shartnoma tuzadi va shartnomaga asosan u oʻzining serveridan abonentga joy ajratadi yoki tezkorlik bilan ma'lumotlar almashinuvi yoʻlga qoʻyilishida yordam beradi.

Texnologiyalarning rivoji bir vaqtning oʻzida shaxs, jamiyat va davlat manfaatlariga foyda keltirsa, ikkinchi tomondan zarar keltirishi ham mumkin. Har bir texnologiya jamiyat va davlat ravnaqiga xizmat qilishini ta'minlash uchun qonunchilikni amaliyotda boʻlishi mumkin boʻlgan muammolardan oldinroq tartibga solib qoʻyish muhimdir.

Amiriddin ANORBOYEV
Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi yuriskonsulti